

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02-**  
**RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ACHILOVA EMINA SA'DULLOYEVNA**

**ADABIYOT TA'LIMINI XALQARO BAHOLASH DASTUR TALABLARI**  
**ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**CHIRCHIQ – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogikal sciences**

**Achilova Emina Sa'dulloyevna**

Adabiyot ta'limini xalqaro baholash dastur talablari asosida rivojlantirish  
texnologiyalari ..... 3

**Ачилова Эмина Саъдуллоевна**

Технологии развития литературного образования на основе требований  
международных программ оценки качества образования ..... 25

**Achilova Emina Sadulloevna**

Technologies for the Development of Literature Education Based on the  
Requirements of International Assessment Programs ..... 51

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 56

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02-  
RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ACHILOVA EMINA SA'DULLOYEVNA**

**ADABIYOT TA'LIMINI XALQARO BAHOLASH DASTUR TALABLARI  
ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

**CHIRCHIQ – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirlar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.Phd/Ped4986 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Achilova Sevara Djasirkulovna**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Kaziyeva Turg'unoy Tursunbayevna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Jamoliddinova Dilnoza Mirxojiddinovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**


**Guliston davlat universiteti**


Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02-raqamli ilmiy kengashning 2026 yil «10» 04 kuni soat 16 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz).


Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (459 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «31» 03 kuni tarqatildi.

(2026 yil «31» 03 da) 13- raqamli reestr bayonnomasi).

  
**U.N. Xodjamqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

  
**F.T. Rajabov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari doktori, dotsent

  
**B.A. Eshchanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori, professor



## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda adabiyot ta'limi mazmunini fanlararo, ma'noyaratuvchi va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqish tendensiyasi tobora kuchaymoqda. Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Kanada kabi yetakchi mamlakatlar ta'lim tizimida adabiyot fani orqali o'quvchilarning mulohazali o'qishi, ijtimoiy anglash qobiliyati va shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish ustuvor maqsad sifatida belgilangan. Ayniqsa, PISA kabi xalqaro baholash dasturlarida o'quvchining faqat bilim emas, balki ma'no yaratish va fikrlash salohiyati asosiy mezon sifatida baholanishi ta'lim mazmunidagi yangilanishlar zarurligini ko'rsatmoqda. Shu sababli adabiyot ta'limida xalqaro talablarga mos kompetensiyaviy metodik yondashuvlarni shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda adabiyot ta'limining savodxonlikni chuqurlashtirish, ma'noyaratuvchi kompetensiyalarni shakllantirish va fanlararo integratsiya asosida transformatsiya qilinishiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, OECD va UNESCO tomonidan tayyorlangan tahliliy materiallarda ta'limni qayta formatlash, o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda gumanitar fanlar, xususan adabiyot fanining integrativ va multimodal imkoniyatlaridan samarali foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, so'nggi yillarda Andreas Schleicher, Maryanne Wolf, Brian Street kabi mutaxassislar tomonidan ma'no yaratish, mulohazali o'qish va ijtimoiy anglashga qaratilgan metodik yondashuvlar konseptual asos sifatida ishlab chiqilmoqda. Mazkur jarayonlar adabiyot ta'limida shaxs rivojiga xizmat qiladigan xalqaro mezonlarga mos innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga zarurat ortmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim mazmunini xalqaro talablar asosida yangilash, o'quvchilarda funksional savodxonlik, ijtimoiy anglash va shaxsiy pozitsiyani shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar joriy etilayotgan bir paytda, adabiyot ta'limidagi an'anaviy reproduktiv usullar bu maqsadlarga to'liq javob bermasdan qolmoqda. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va PISA, PIRLS singari xalqaro baholash dasturlaridagi ishtirok milliy ta'lim tizimidan ko'nikmaga yo'naltirilgan, ma'no yaratishga asoslangan, interfaol va fanlararo yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu borada adabiyot fanini shaxs rivojiga xizmat qiluvchi ta'lim predmeti sifatida qayta formatlash zarurati tobora oydinlashmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan farmon va qarorlari doirasida innovatsion pedagogik metodlar, shu jumladan, kognitiv va neyropedagogik yondashuvlardan foydalanish masalasiga katta e'tibor qaratilayapti. Maktab ta'limi tizimi oldiga qo'yilgan "2030-yilga kelib PISA xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kiritishga erishish" vazifasi pedagogik oliy ta'lim muassasalarida ham ta'lim mazmunini shu vazifaga moslab qayta ko'rib chiqish lozimligini ko'rsatadi. Shu asosda adabiyot ta'limida xalqaro mezonlarga uyg'un innovatsion metodika va texnologiyalarni joriy etish zarurati kuchaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

to'g'risida", 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari; 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 16 yanvardagi PQ-4119-son "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 19 iyuldagi 390-son "Xalq ta'limi vazirligi tizimida o'quvchi-yoshlarni kelajak kasblariga tayyorlash markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyat bilan bog'liq boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Adabiyot nazariyasi, adabiyotshunoslik asoslari, adabiyot o'qitish metodikasi va uning didaktik ta'minoti, dastlabki adabiyot darsliklarini yaratish borasida izlanishlar olib borgan Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurahmon Sa'diy, Izzat Sulton kabi ijodkorlarning ilmiy-nazariy, adabiy va ma'rifiy qarashlari mazkur tadqiqot ishiga metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Mamlakatimizda adabiyot o'qitish metodikasi, adabiy ta'limga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish, o'quvchilarning adabiy-badiiy, axloqiy va estetik kompetentligini rivojlantirish, badiiy asar tahlili, badiiy adabiyotning o'quvchi ma'naviy kamolotidagi o'rni, o'quvchilarning badiiy va estetik didini shakllantirish kabi muammolar A.Zunnunov, N.Hotamov, J.Esonov, A.Ibrohimov, B.To'xliyev, S.Matchonov, Q.Yo'ldoshev, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova; zamonaviy pedagogik yondashuvlar tadqiqi, ularni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlari, xalqaro baholash tadqiqotlari asosida umumiy o'rta ta'lim mazmunini takomillashtirish, xalqaro andozalar va tajribalar asosida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish masalalari M.E.Jumayev, M.Y.Yuldasheva, B.U.Mingbayeva, G.A.Mamatov, E.Y.Davletov, M.F.Qurbonova, A.M.Matkarimovlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida adabiy ta'limni tashkil etish muammolari, adabiyot o'qitish metodikasini takomillashtirish, adabiy ta'limni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish, o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish, xalqaro baholash dasturlari talablarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlari YE.M.Boxorskiy, I.V.Komarov, V.A.Bolotov, A.N.Daxin, I.D.Frumin, T.I.Shamov, Y.Tatur, S.G.Vorovshikov, T.YE.Xavenson, Y.D.Kersha, G.S.Kovaleva, E.A.Krasnovskiy, L.P.Krasnokutskaya, K.A.Krasnyanskaya, V.Y.Stoyunin, V.P.Ostrogorskiy, M.A.Ribnikova, V.V.Golubkov kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Xorijlik olimlardan D.S.Ruxen, L.X.Saljanik, J.Valijarvi, M.Uljens, S.T.Hopman, A.Rarrek, E.Verner, G.Brinek, M.Retzl, J.Sachs, P.Sahlberg, H.Niyemi, A.Toom, A.Kallioniyemi, Jakku-Sixvonen, G.Sukermanlarning ilmiy izlanishlarida kompetensiya muammosi, ta'lim sifatiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar, ta'lim jarayonini xalqaro baholash dasturi talablari asosida tashkil qilish masalalari o'rganilgan.

Adabiyot o'qitish metodikasini zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va akmeologik yondashuvlar asosida takomillashtirish, xalqaro baholash dastur talablari asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish, badiiy matn bilash ishlash malakasini rivojlantirish zarurati mazkur dissertatsiyaning mavzusini belgilab berdi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari" mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** umumta'lim maktablarida adabiyot ta'limini xalqaro baholash talablari asosida rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

XXI asr adabiyot ta'limida fanlararo yondashuvning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish;

xalqaro baholash dasturlari talablariga mos holda adabiyot ta'limi mazmuni va texnologiyalarini takomillashtirish yo'llarini asoslash;

o'quvchilarda PISA mezonlariga mos o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish;

adabiyot ta'limida xalqaro talablarga muvofiq transformatsiya modelini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida umumta'lim maktablarida adabiyot ta'limini xalqaro baholash talablari asosida rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Buxoro viloyati Olot tumani 14-maktab, Toshkent viloyati Chirchiq shahar 15-maktab va Navoiy viloyati Navbahor tumani 5-maktablarning jami 442 nafar o'quvchilari jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** adabiyot ta'limida xalqaro baholash dasturlari talablariga muvofiq o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishda fanlararo yondashuvga asoslangan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashning mazmuni, shakllari, metodik asoslari, pedagogik mexanizmlari va samarador vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy (statistik tahlil, qiyosiy tahlil, kompleks yondashuv, tizimli funksional yondashuv), diagnostik (suhbat, so'rovnoma, kuzatish, tasniflash, intervyu), matematik va pedagogik eksperiment (ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish, natijalarni grafik tasvirlash, modellashtirish, eksperiment va boshqalar) kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

XXI asr adabiyot ta'limida fanlararo yondashuvning nazariy-metodologik asoslari kognitiv-estetik yondashuv, ma'no yaratuvchi ta'lim, multimodal savodxonlik va xalqaro baholash mezonlarini ta'lim amaliyotiga adabiy tahlil, shaxsiy interpretatsiya va interfaol ta'lim orqali integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

xalqaro baholash dasturlari talablariga mos holda adabiyot ta'limi mazmuni va texnologiyalari o'quv jarayonini transformatsiya qilish, savodxonlikni chuqurlashtirish, ta'limiy metodikani qayta ko'rib chiqish va baholash usullarini yangilash hamda ta'lim natijalarini sifat jihatdan baholash asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarda PISA mezonlariga mos o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi adabiyot ta'limi mazmuni, dars formatlari va interfaol usullarni xalqaro baholash dasturlariga muvofiq qayta tuzish hamda funksional savodxonlikni shakllantirish asosida transformatsiyalash orqali takomillashtirilgan;

adabiyot ta'limini xalqaro tadqiqotlar talabiga muvofiq transformatsiya qilish modeli ilmiy modellashtirishning universallik va normativlik tamoyillarini adabiy ta'limning kognitiv, funksional va texnologik parametrlariga integrativ moslashtirish asosida takomillashtirilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari.**

umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot fanini o'qitish jarayonida PISA mezonlariga mos o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mezon va ko'rsatkichlari aniqlashtirildi;

xalqaro baholash dasturlari talablariga uyg'un holda adabiyot ta'lim mazmunini transformatsiya qilishning aniq texnologik mexanizmlari ishlab chiqildi;

fanlararo, multimodal va ma'noyaratuvchi yondashuvlarga asoslangan adabiy darslarni tashkil etish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi;

adabiyot ta'limida CLIL, CBL, keys, debat, RAFT kabi innovatsion metodlarni o'qish savodxonligini oshirish maqsadida integrativ qo'llash bo'yicha mualliflik ssenariy va dars ishlanmalari tuzildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** o'quvchilarda PISA mezonlariga mos o'qish savodxonligini rivojlantirishda qo'llanilgan ta'lim texnologiyalarining nazariy-metodologik asoslari, xalqaro baholash mezonlariga uyg'un kognitiv va interfaol yondashuvlarning ilmiy jihatdan asoslanganligi, ularning milliy ta'lim amaliyotida qo'llash imkoniyatlari, ta'limiy jarayondagi ma'noyaratuvchi faoliyat, ijtimoiy anglash va shaxsiy pozitsiyani shakllantiruvchi mexanizmlar bilan uyg'unligi, metodika samaradorligini baholashda pedagogik tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik natijalari, jumladan, Student-Fisher t-kriteriyalari, korrelyatsion va dispersiya tahlili asosida aniqlangan aniq farqlar hamda ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarning ta'lim muassasalari amaliyotida sinab ko'rilgan va maqbul deb topilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ushbu ishda adabiyot ta'limida fanlararo yondashuv, ma'noyaratuvchi faoliyat va xalqaro baholash dasturlari mezonlarini integratsiya qilish asosida PISA talablariga mos savodxonlikni rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari takomillashtirilganligi, ta'lim mazmunini kognitiv, estetik va interfaol jihatdan qayta yangilashga oid nazariy xulosalar ilmiy jihatdan asoslanganligi, adabiyot fanini shaxs

rivojiga yo'naltirilgan mazmunda qayta ko'rib chiqish zarurati dalillar bilan asoslanganligi hamda transformatsiya jarayonini ilmiy modellashtirishga oid yondashuvlar tizimlashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan model va metodik tizimni umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiyot darslariga joriy qilish orqali o'quvchilarda mulohazali o'qish, ma'no yaratish va ijtimoiy anglash salohiyatini rivojlantirish imkoniyati yaratilgani, shuningdek, savodxonlikni shakllantirishga qaratilgan CLIL, CBL, keys-tahlil, debat, insert va RAFT kabi texnologiyalarni ta'lim amaliyotida samarali qo'llashni ta'minlovchi metodik vositalar ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Adabiyot ta'limini xalqaro baholash dastur talablari asosida rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

kognitiv-estetik yondashuv, ma'no yaratuvchi ta'lim, multimodal savodxonlik va xalqaro baholash mezonlarini ta'lim amaliyotiga adabiy tahlil, shaxsiy interpretatsiya va interfaol ta'lim orqali integratsiyalash asosida tahlil qilingan XXI asr adabiyot ta'limida fanlararo yondashuvning nazariy-metodologik asoslari bo'yicha taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170929789-sonli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan.(Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2025 yil 15-maydagi 04/11-6771-son ma'lumotnomasi). Natijada, umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot fanini o'qitish jarayonida PISA mezonlariga mos o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga xizmat qilgan;

o'quv jarayonini transformatsiya qilish, savodxonlikni chuqurlashtirish, ta'limiy metodikani qayta ko'rib chiqish va baholash usullarini yangilash hamda ta'lim natijalarini sifat jihatdan baholash asosida takomillashtirilgan xalqaro baholash dasturlari talablariga mos holda adabiyot ta'limi mazmuni va texnologiyalari bo'yicha tavsiyalar Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining A1-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" nomli amaliy loyahasini bajarishda foydalanilgan.(2025 yil 12-maydagi 212-son ma'lumotnomasi). Natijada, xalqaro baholash dasturlari talablariga uyg'un holda milliy adabiyot ta'lim mazmunini transformatsiya qilishning aniq texnologik mexanizmlari ishlab chiqishga xizmat qilgan;

adabiyot ta'limi mazmuni, dars formatlari va interfaol usullarni xalqaro baholash dasturlariga muvofiq qayta tuzish hamda funksional savodxonlikni shakllantirish asosida transformatsiyalash orqali takomillashtirilgan o'quvchilarda PISA mezonlariga mos o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi, ilmiy modellashtirishning universallik va normativlik tamoyillarini adabiy ta'limning kognitiv, funksional va texnologik parametrlariga integrativ moslashtirish asosida takomillashtirilgan adabiyot ta'limini xalqaro tadqiqotlar talabiga muvofiq transformatsiya qilish modeli bo'yicha taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy

teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Talim va taraqqiyot”, “Bolalar va biz” radioeshittirishlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025 yil 28-maydagi 05-09-572-son ma’lumotnomasi). O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi DUK “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqqimot” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali” DUK “O‘zbekiston tarixi” telekanalining 2021 yil 18 avgustdagi 02-40-1329-son ma’lumotnomasi). Natijada, fanlararo, multimodal va ma’noyaratuvchi yondashuvlarga asoslangan adabiy darslarni tashkil etish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar va metodik tavsiyalarni ommalashtirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 171 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida tadqiqot ishining dolzarbligi asoslab berilgan, maqsadi, obykti, predmeti va vazifalari belgilangan, tadqiqot ishini tashkil etishning nazariy va metodologik asoslari ta’riflangan, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Adabiyot ta’limining global tendensiyalari va zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari**” deb nomlanadi va unda Adabiyot ta’limini rivojlantirish muammosining pedagogik tadqiqotlarda o‘rganilishi tahlil qilingan, XXI asr adabiyot ta’limida fanlararo majmuaviy yondashuvning nazariy-metodologik asoslari va adabiyot ta’limini transformatsiya qilishda xalqaro baholash dasturlarining o‘rni yoritilgan.

Adabiyot ta’limi nafaqat tilni o‘rganish, balki ma’naviy qadriyatlarni, tarixiy ongini va estetik tafakkurni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, uning mazmuni, metodlari va o‘qitish maqsadlarini takomillashtirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi. Adabiyot ta’limi samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar mazkur fanning tarbiyaviy, ma’rifiy va kompetensiyaviy vazifalarini aniqlash, fanlararo integratsiya imkoniyatlarini tahlil qilish va ta’limda innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalarini qamrab olmoqda. Adabiyot o‘qitish metodikasi fani o‘tmishdagi boy tajribalarni o‘rganish asosida hozirgi zamon adabiyot ta’limini rivojlantirish muammosiga oid jarayonlarni umumiyashtiradi. Adabiyot Sharq xalqlari, jumladan,

o‘zbek xalqi hayotida har doim juda katta ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan. Cho‘lponning “Adabiyot yashasa – millat yashar”<sup>1</sup> degan fikri bejiz emas. Adabiyotning fan sifatida shakllanishi hamda uni o‘qitish ishlari birdaniga hozirgi holga kelib qolmagan, albatta. Turkiy xalqlar orasida adabiy ta’lim an’analari juda qadim zamonlarga borib taqaladi.

Dissertatsiyada Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning; Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ma’rifatparvarlarning; Subutoy Dolimov, Qudrat Ahmedov, Asqar Zunnunov kabi kashshoflarning; Qozoqboy Yo‘ldoshev, Safo Matchonov, Marg‘uba Mirqosimova kabi zamonaviy olimlarning adabiy ta’lim taraqqiyotiga qo‘shgan hisslari ochib berilgan.

Adabiyot ta’limi tabiatiga ko‘ra, falsafa, tilshunoslik, psixologiya, pedagogika, tarix, san’atshunoslik, madaniyatshunoslik kabi sohalar bilan uzviy bog‘liq ekanligi fanlararo yondashuvni zarurat sifatida belgilaydi. Chunonchi, badiiy matnni o‘rganish jarayonida so‘z san’ati, obrazlar sistemasi, muallif maqsadi va madaniy kontekstni anglash uchun o‘quvchi turli sohalar doirasida fikr yuritishi, multidissiplinar tafakkurga ega bo‘lishi lozim. J.Klayn ta’kidlaganidek: “Fanlararo yondashuv faqatgina tadqiqot usuli emas, balki u voqelikning murakkabligini aks ettiruvchi va o‘quvchilarda integrativ (ya’ni, uyg‘unlashtiruvchi) tafakkurni rivojlantiruvchi ta’lim usuli hamdir.”<sup>2</sup> Shu jihatdan qaralganda, fanlararo yondashuv ta’limning faqat metodik usuli emas, balki jamiyatning intellektual, axloqiy va madaniy muvozanatini ta’minlaydigan tarbiyaviy vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. XXI asr talablariga mos, innovatsion va integrativ ta’lim jarayonida fanlararo yondashuvni keng qo‘llash o‘quvchini global fikrlaydigan, milliy qadriyatlarni angelaydigan, axborotni tahlil qila oladigan shaxs sifatida shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biridir.

Zamonaviy rus tadqiqotchilari ham adabiyot fanini multidissiplinar yondashuv nuqtai nazaridan o‘rganish zarurligini alohida ta’kidlashadi. Masalan, YE.V.Bondarenkoning ta’kidlashicha, “Multidissiplinar yondashuv adabiyotni faqatgina matn sifatida emas, balki axborot, ma’rifat va faol anglash obyekt sifatida qarash imkonini beradi. Bunday yondashuv o‘quvchining tafakkur darajasi va ma’naviy yetukligini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir.”<sup>3</sup> Adabiyot ta’limida ushbu ko‘p fanli yondashuvni to‘g‘ri tashkil etish orqali o‘quvchida nafaqat adabiy tahlil qobiliyati, balki mulohazali o‘qish, hissiy-axloqiy baholash, shaxsiy ma’no yaratish, tanqidiy fikr va ijtimoiy pozitsiyani shakllantirish imkoni yaratiladi. XXI asr adabiyot ta’limi uchun aynan mana shunday integrativ salohiyatni faollashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyot ta’limida fanlararo yondashuvni amalga oshirishda pedagogika, psixologiya, lingvistika, neyropedagogika, media savodxonlik va madaniy ta’lim fanlari o‘rtasidagi integratsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagogika adabiyot

<sup>1</sup> Чўлпон. Адабиёт надири: (Адабий-танкидий мақолалар, Чўлпон ҳақида хотиралар). Тўпловчи ва изох муаллифлари: Д. Куронов, З. Эшонова, У. Султонов; Масъул муҳаррир О. Шарафуддинов, У. Норматов/. – Тошкент: Чўлпон, 1994. – 240 б. 36-бет.

<sup>2</sup> Klein J.T. Interdisciplinarity: History, Theory, and Practice. – Detroit: Wayne State University Press, 1990. – P. 11.

<sup>3</sup> Бондаренко Е.В. Мультидисциплинарность в школьном литературном образовании // Литература в школе. – 2019. – №3. – С. 11.

o'qitish jarayonida ta'limiy maqsadlar, tarbiyaviy ta'sir va shaxs rivoji uchun qulay sharoitlar yaratishni ta'minlaydi. Adabiyot darslari faqat bilim berish emas, balki faol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilganligi sababli, zamonaviy pedagogik yondashuvlar (faol ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv tahlil) u bilan uzviy bog'liqdir.

XXI asr adabiyot ta'limi faqat matnni o'qish va yodlashga emas, balki uni mulohazali tahlil qilish, shaxsiy ma'no yaratish, ijtimoiy munosabatlar bilan bog'lash va turli axborot manbalari bilan uyg'unlashtirishga asoslanishi lozim. Shu bois, ta'limning tekstsentrizm, kompetensiyaviy yondashuv, CLIL (Content and Language Integrated Learning), CBL (Case-Based Learning), gumanitar savodxonlik va kognitiv-estetik yondashuv kabi nazariy modellari adabiyot o'qitish jarayonida yangi o'rin egallab bormoqda. Bu modellarni tahlil qilish orqali adabiyot fanining shakl va mazmunini zamonaviy talablarga mos holda yangilash imkoniyatlari ochiladi. Bu borada dissertatsiyada Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya, Kanada, Germaniya kabi davlatlarning tajribasi tahlilga tortilgan.

So'nggi o'n yilliklarda ta'lim sifatini baholashda xalqaro baholash dasturlari global mezon sifatida keng ahamiyat kasb etmoqda. PISA (Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va EQAR (European Quality Assurance Register) kabi dasturlar turli davlatlardagi o'quvchilarning funksional savodxonlik, o'qish, tahlil qilish, fandagi mulohazali yondashuv va ijtimoiy faollik darajalarini aniqlashga qaratilgan. Bu dasturlar ta'lim natijalarini faqat akademik bilimlar asosida emas, balki real hayotga tatbiq etish qobiliyati orqali baholashni maqsad qiladi. Shu bois, ular nafaqat ta'lim tizimining samaradorligini aniqlash, balki o'quv mazmuni, pedagogik yondashuv va metodik vositalarni qayta ko'rib chiqish uchun ilmiy asos yaratadi. Xususan, adabiyot fanini transformatsiya qilishda ham ushbu dasturlar muhim mezon va manba sifatida xizmat qilmoqda. Xalqaro baholash dasturlari haqiqatan ham faqat baholash mexanizmi emas, balki ta'lim tizimini transformatsiya qilishga olib keluvchi strategik dasturlardir. Ular ta'lim natijalarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish, milliy o'quv dasturlarini qayta ishlash, kompetensiyaviy yondashuvni keng joriy etish va o'quvchida shaxs sifatida fikr yuritish qobiliyatini tarbiyalashni talab qiladi. Bu haqda Britaniyalik pedagog Rut Ditrrix shunday yozadi: "Xalqaro baholashlar faqatgina test emas; ular ta'lim islohotining vositalaridir, ular bilimga ega bo'lish bilan uni amalda qo'llash o'rtasidagi farqni ochib beradi va o'zgarib borayotgan dunyoda adabiyotni qanday va nega o'qitishimizni qaytadan ko'rib chiqishga undaydi."<sup>4</sup>

Xalqaro baholash dasturlarida, ayniqsa PISA va PIRLS kabi keng qamrovli baholash tizimlarida o'quvchi savodxonligini baholash faqat ma'lumotni o'qish va yodlash bilan emas, balki axborotni tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va qayta qo'llash qobiliyati bilan belgilanadi. Bu mezonlar ta'lim mazmunini kompetensiyaviy asosda qayta shakllantirish, o'quvchida mulohazali o'qish, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy anglash qobiliyatini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega.

---

<sup>4</sup> Dietrich R. Global Literacies and the Role of Assessment // International Journal of Educational Development. – 2017. – Vol. 55. – P. 89–98.

An'anaviy adabiyot o'qitish usuli, asosan, ma'lumot berish, syujetni qayta ifodalash, qahramonlar xarakteri va muallif haqida ma'lumot berishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchining bilish, tahlil qilish, shaxsiy munosabat bildirish va ijtimoiy anglash qobiliyatlarini chuqur rivojlantirishga yetarlicha xizmat qilmaydi. Bu usul ko'pincha o'quvchini passiv qabul qiluvchi, tayyor ma'lumotni yodlovchi sifatida shakllantiradi. Ta'limdagi zamonaviy tendensiyalar esa o'quvchini bilimning markaziga qo'yish, uni faol ma'no yaratuvchi, muloqotchi va ijodkor subyekt sifatida tarbiyalashni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, adabiyot ta'limida multimodal va integrativ yondashuvlarga o'tish zarurati yuzaga kelmoqda. **Multimodal ta'lim** bu ma'lumotni faqat matn orqali emas, balki tasvir, ovoz, harakat, video, infografika, dramalashtirish va raqamli muhit vositalari orqali uzatish va qabul qilishga asoslangan o'qitish uslubidir. **Integrativ ta'lim** adabiyotni boshqa fanlar (tarix, psixologiya, falsafa, tilshunoslik, madaniyatshunoslik) bilan bog'liq holda o'rgatishga asoslanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Adabiyot ta'limini xalqaro baholash dastur talablari asosida rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi**" deb nomlanadi va unda adabiyot ta'limi tizimini global konsepsiyalar asosida transformatsiya qilish yo'nalishlari taklif qilingan, xalqaro baholash mezonlari asosida adabiyot ta'limi uchun innovatsion texnologiyalar ishlab chiqilgan va PISA dasturi talablari asosida o'quvchilarda o'qish savodxonligini oshirish metodikasi takomillashtirilgan.

O'zbek adabiyotini o'qitishda so'nggi yillarda amaliy natijadorlik va metodik standartlashuv bo'yicha jiddiy muammolar kuzatilmoqda. Bir tomondan, ta'lim dasturlari, darsliklar va o'qitish metodikalarida ma'lum an'anaviylik saqlangan bo'lsa-da, ularni qo'llashda maktablar, o'qituvchilar va hududlar o'rtasida bir xil yondashuvlar va baholash mezonlari mavjud emas. Bu esa butun tizim bo'yicha sifatdagi turliklik (variantivlik emas, balki noaniqlik) va o'quv natijalarining nomutanosibligini keltirib chiqarmoqda. Adabiyot darslarida qo'llanilayotgan ish usullari ko'p hollarda ustozning shaxsiy tajribasi va subyektiv qarashlariga asoslanadi, bu esa metodik standartsizlikka sabab bo'lmoqda. Bir maktabda ijodiy-tahlil etuvchi usullar qo'llanilar ekan, boshqa maktabda faqat reproduktiv savol-javoblar asosida ish olib borilayotgani holatlari uchraydi. Natijada, adabiyot fanini o'qishga bo'lgan qiziqish pasaymoqda, badiiy tahlil, shaxsiy fikr bildirish, matn bilan muloqotga kirishish, qahramonga baho berish kabi yuqori darajali tafakkur faoliyatlari yetarlicha rivojlanmayapti. Andreas Shlyaxer ta'kidlaganidek, "Agar maktablar bolalarni o'tmish qoliplari asosida o'qitaversa, ular kelajakning chaqiriqlariga javob bera olmaydi. Bugungi kunda faqat o'qitish emas, balki ma'no anglash, muhokama qilish va amalga oshirish imkoniyatlarini yaratish muhimdir".<sup>5</sup> Bu fikrdan kelib chiqib, adabiyot ta'limidagi muammolar faqat metod emas, balki maqsad, mazmun va baholash tizimlaridagi noaniqlik bilan bog'liq ekanini anglash mumkin.

Ta'limni transformatsiya qilish jarayoni so'nggi yillarda dunyo miqyosida global tahlil, strategiya va ilmiy yondashuvlar asosida shakllanmoqda. Xususan, XXI asrdagi ta'lim islohotlari faqat fanlar sonini oshirish yoki darsliklarni yangilash bilan emas, balki insonni o'zgaruvchan, raqobatli va ma'lumotga to'yingan dunyoga tayyorlash

---

<sup>5</sup> Шляхер А. Образование мирового уровня. Как выстроить школьную систему XXI века? – М.: Национальное образование, 2019. – С. 59.

masalasi bilan bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, UNESCO, OECD, Yevroparlament, Osiyo-Tinch okeani davlatlari va boshqa xalqaro ta'lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan global ta'lim konsepsiyalari zamonaviy ta'limni qanday qayta qurish kerakligini nazariy va amaliy jihatdan belgilab bermoqda. Ushbu konsepsiyalar — “umrbod ta'lim”, “inson kapitali”, “multikompetensiyalar”, “fanlararo savodxonlik”, “ta'limda ma'no yaratish”, “shaxsga yo'naltirilgan yondashuv” kabi asosiy tamoyillarga suyangan holda, adabiyot fanini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Chunki adabiyot ta'limi ana shunday global konsepsiyalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muhim ma'naviy, intellektual va tarbiyaviy platforma hisoblanadi.

PISA baholash dasturlari orqali olingan ma'lumotlar asosida ta'limning maqsadi faqat bilim berish emas, balki bilimni ma'noli ravishda qo'llay olish va hayotda mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatini shakllantirish ekanligi aniq belgilab berildi. Bu ta'limning mazmuni, metodikasi va baholash tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Shu asosda OECD tomonidan “XXI asr ko'nikmalari” deb nomlangan kompetensiyalar tizimi ishlab chiqildi. Dissertatsiyada ushbu kompetensiyalar tahlil qilingan.

Adabiyot ta'limida metodlar transformatsiyasi, ya'ni o'qitish usullarini zamonaviy, faol va integrativ modellar asosida qayta shakllantirish ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi. Bugungi kunda jahon amaliyotida e'tirof etilgan metodik modellar: CLIL (Content and Language Integrated Learning), CBL (Case-Based Learning) va Inquiry-Based Learning (savolga asoslangan o'qitish) adabiyot darslarida o'quvchining ma'no anglash, mulohaza yuritish va ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Ushbu modellarni integratsiya qilish orqali an'anaviy passiv darslar o'rnini faol ta'lim jarayonlari egallaydi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari ta'limning mazmun va shaklida yuz berayotgan tub o'zgarishlarni nazarda tutuvchi, maqsad, mazmun, metod va natija uyg'unligini ta'minlovchi tizimli yondashuv hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar an'anaviy o'qitishning passiv, ma'lumotga yo'naltirilgan modelidan farqli o'laroq o'quvchi faolligini, shaxsiy anglashini, ijodiy fikrlashini va ma'no yaratish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, ta'lim texnologiyasi bu “o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan, intizomli va rejalashtirilgan ta'limiy jarayon” bo'lib, u belgilab olingan maqsadga qat'iy yo'naltirilgan holda amalga oshiriladi. Shuning uchun zamonaviy texnologiyalarni adabiyot ta'limida qo'llash nafaqat yangi usullarni joriy etish, balki ta'lim falsafasini qayta ko'rib chiqishni ham taqozo etadi.

Zamonaviy ta'limda, xususan, xalqaro baholash dasturlarida o'quvchilarda rivojlantirilishi lozim bo'lgan asosiy kompetensiyalar qatorida ma'no yaratish, mulohazali o'qish, matnlar o'rtasida bog'lanish o'rnatish va shaxsiy pozitsiya bildirish kabi ko'nikmalar alohida o'rin tutadi. Bu ko'nikmalar PISA va PIRLS dasturlarining metodologik asosida muhim o'lchov sifatida belgilangan bo'lib, ular o'quvchining bilimni hayotga tatbiq etish qobiliyatini, tanqidiy fikrlash salohiyatini va ijtimoiy anglash darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Ma'no yaratish — bu faqat matnning lo'nda mazmunini tushunish emas, balki o'quvchining o'z shaxsiy tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy mezonlari asosida o'qilgan axborotni qayta anglash, qayta qurish va ma'nani o'zlashtirish jarayonidir. Mulohazali o'qish — bu o'quvchining matn bilan muloqotga faol kirishishi, savol qo'yishi, muallif niyatini anglashga intilishi, dalil va xulosalarni ajratishi, o'zaro bog'liqlikni teran idrok etishi demakdir.

Matnlar o'rtasida bog'lanish o'rnatish ko'nikmasi — bu o'quvchining bir matnni boshqa matnlar, voqelik, fanlar, tarixiy kontekst yoki shaxsiy tajriba bilan bog'lash qobiliyatidir.

Xalqaro baholash dasturlarida belgilangan savodxonlik ko'nikmalari: ma'no yaratish, mulohazali o'qish, matnlar o'rtasida bog'lanish o'rnatish va shaxsiy pozitsiya bildirish an'anaviy ta'lim usullari bilan to'la rivojlanishi qiyin bo'lgan yuqori darajali kognitiv va ijtimoiy faoliyat turlaridir. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda multimodal, interfaol va faollashtiruvchi ta'lim texnologiyalari markaziy o'rin tutadi.

Multimodal texnologiyalar — bu matnni nafaqat verbal, balki vizual, audiovizual, raqamli va kinestetik usullarda o'rganish imkonini beradigan yondashuvlardir. Masalan, adabiy obrazni infografika orqali ifoda etish, she'rni sahnalashtirish, qahramon hissiyatini podkast orqali tahlil qilish, asar mazmuniga asoslangan video esse tayyorlash kabi faoliyatlar o'quvchining estetik va mulohazali fikrlashini uyg'otadi. Multimodal yondashuv adabiyotni ko'p formatli anglash muhitiga aylantiradi, bu esa PISA baholashida talab etiladigan mazmunlararo bog'lanish va ijtimoiy anglashni chuqurlashtiradi.

Interfaol texnologiyalar — o'quvchi bilan o'qituvchi, o'quvchi bilan o'quvchi, o'quvchi bilan matn o'rtasida jonli, mazmunli va teng huquqli muloqotni ta'minlaydigan usullardir. "Akvarium", "Fikrlar xaritasi", "Insert", "Debat burchagi", "Klaster" kabi shakllar orqali o'quvchi mulohazalar bildirish, ularni taqqoslash, guruhda himoya qilish va qayta ko'rib chiqish imkoniga ega bo'ladi. Bu jarayonda fikrlash, savol berish, ta'riflash va shaxsiy munosabat bildirish kabi ko'nikmalar uyg'onib, ma'no yaratish jarayoni jamoaviy faol muloqot orqali boyitiladi.

Faollashtiruvchi texnologiyalar esa o'quvchi markazida tashkil etilgan ta'lim jarayonini nazarda tutadi. Bu texnologiyalar: CLIL (mazmun va til integratsiyasi), CBL (keysli o'qitish), Inquiry-Based Learning (savolga asoslangan o'qitish), esse-konstruktorlar, rolli o'yinlar, vizual esse, raqamli slayd-konseptlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, adabiy muammoli vaziyatni keys orqali yechishda o'quvchi nafaqat matnni anglaydi, balki qahramon nuqtai nazarini tushunish, axloqiy tanlovga munosabat bildirish, ijtimoiy xulosa chiqarish faoliyatini amalga oshiradi. Bu esa faqat bilish emas, balki ma'naviy anglash, shaxsiy nuqtai nazar va ijtimoiy tafakkurning yuzaga chiqishiga zamin yaratadi. Multimodal, interfaol va faollashtiruvchi texnologiyalar savodxonlikning yuqori bosqichlariga: mulohazali, ijtimoiy faol va ma'no yarata oladigan o'quvchi shaxsiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda mazkur texnologiyalar xalqaro baholash mezonlarining salohiyatini adabiyot ta'limida hayotga tatbiq qilishning eng samarali vositasi ekanligi asoslantirilgan. Ushbu texnologiyalarning adabiy ta'limda qo'llanilishi umumiy o'rta ta'lim fan dasturlaridagi aniq mavzular bo'yicha misollar yordamida ko'rsatib berilgan.

PISA baholash dasturi ta'lim mazmuniga yangi talablarni olib kirgani singari, o'qitish metodlarini ham tub qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Xususan, adabiyot ta'limida faqat badiiy matnni o'qish va tushunish emas, balki uni tahlil qilish, ma'no yaratish, shaxsiy pozitsiya bildirish va ijtimoiy anglash kabi yuqori darajadagi kognitiv va kommunikativ faoliyat turlarini shakllantiradigan metodik yondashuvlarga ehtiyoj ortdi. Bu ehtiyoj adabiyot fanini o'qitishda PISA mezonlariga mos, tarkibiy-izchil va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini joriy etishni zaruratga aylantirdi. Bunday metodlar zamonaviy ta'limda "shaxsiy ma'no yaratish" g'oyasi asosida shakllanadi va o'quvchida mustaqil fikrlash, ko'p qarashli tahlil qilish, ijtimoiy munosabat bildirish kabi kompetensiyalar rivojiga xizmat qiladi. Endi ana shu metodlarning nazariy-metodik asoslarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

**Muammoli o'qitish metodi** – bu o'quv jarayonida o'quvchilar oldiga turli tanlovli, ziddiyatli yoki axloqiy-ijtimoiy muammolarni qo'yish orqali ularda mustaqil fikrlash, analiz qilish, dalil asosida qaror qabul qilish va ijtimoiy anglash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metoddir. Bu usulda o'quvchi bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, aksincha, uni izlab topadi, bahslashadi, tanlaydi, tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.

Muammoli o'qitishning markazida tanlov (bir nechta yechimdan birini tanlash), ziddiyat (tug'ilgan vaziyatda qarama-qarshi fikrlardan birini asoslash) va axloqiy qaror (faqat ma'lumotga emas, qadriyatlarga asoslangan xulosa berish) turishi uning adabiyot ta'limi uchun ayniqsa mosligini ta'minlaydi.

Ushbu metodning PISA mezonlari bilan uyg'unligi quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

**Ma'no yaratish:** *Muammoli holatga duch kelgan o'quvchi matndagi ma'lumotlarni shaxsiy tafakkuri va hayot tajribasi bilan bog'laydi. Bu jarayonda u haqiqiy ma'no yaratadi.*

**Mulohazali o'qish va tahlil qilish:** *Matndagi muammoning sabablari, oqibatlar va qahramonlar pozitsiyasini baholash orqali o'quvchi tahlil ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu jarayon PISAning yuqori bosqichlarida talab qilinadigan faoliyat turidir.*

**Shaxsiy pozitsiya bildirish va ijtimoiy anglash:** *Muammoli vaziyatga shaxsiy munosabat bildirish, ijtimoiy normalar va umuminsoniy qadriyatlar asosida qaror qabul qilish orqali o'quvchida fuqarolik ongi va axloqiy yetuklik shakllanadi.*

*Muammoli o'qitishning afzalliklari quyidagilardan iborat:*

*o'quvchida fikriy faollik, empatik anglash, shaxsiy munosabat va ijtimoiy tahlil shakllanadi;*

*o'qituvchining tayyor javobidan ko'ra, o'quvchining mustaqil xulosasi ustuvor bo'ladi;*

*axloqiy-estetik tarbiyani bilim bilan uyg'unlashtirish imkoni yaratiladi.*

*Muammoli o'qitish PISA mezonlariga to'liq uyg'un, shaxsga yo'naltirilgan, tanqidiy va ijtimoiy fikrni rivojlantiradigan zamonaviy metod bo'lib, adabiyot daralarida o'qish savodxonligini chuqur va ma'noyaratuvchi darajada shakllantirishda beqiyos o'rin tutadi.*

**Keys metodi** — bu ta’limiy jarayonda real yoki shartli-real hayotiy vaziyatlarni, murakkab axloqiy-ijtimoiy holatlarni tahlil qilishga asoslangan metod bo‘lib, o‘quvchini faol fikrlovchi va ma’no yaratuvchi subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Adabiyot fanini o‘qitishda keys metodining asosiy vazifasi asar qahramonining pozitsiyasini anglash, uning tuyg‘u, fikr, muammoli tanlov va qarorlari orqali o‘quvchining shaxsiy munosabati va ijtimoiy anglash qobiliyatini rivojlantirishdir.

Keys metodi bevosita PISA dasturi talablariga mos keladi. Chunki PISA da o‘qish savodxonligi faqat matnni tushunish emas, balki muallif fikri va qahramon pozitsiyasini tahlil qilish, ularni baholash, shaxsiy munosabat bildirish va ijtimoiy kontekstda ma’no yaratish sifatida baholanadi. Keys asosida ishlashda o‘quvchi qahramon oldidagi muammoni o‘z hayotiga yaqinlashtiradi, “Men bo‘lsam nima qilgan bo‘lardim?” degan savol ustida fikr yuritadi va insoniy, axloqiy, fuqarolik nuqtai nazardan xulosa chiqaradi. Bu jarayon o‘quvchining tanqidiy fikrlashini, qaror qabul qilish madaniyatini va ma’naviy dunyoqarashini shakllantiradi.

Keys metodi PISA mezonlarida belgilangan tahlil qilish, interpretatsiya, shaxsiy pozitsiyani dalillash va ijtimoiy anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, adabiyot fanini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim kontekstida o‘qitishda keys metodi yordamida qahramon fikri va o‘quvchi fikri o‘rtasida muloqot jarayoni yuzaga keladi. Bunday muloqot ma’naviyat va tafakkur o‘sishning asosiy mezonidir.

Xulosa qilib aytganda, keys-metod adabiyot ta’limida faqat matn tahlili emas, balki shaxsiy ma’no yaratish, insonparvar anglash va ijtimoiy fikrni shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy metod bo‘lib, PISA mezonlaridagi o‘qish savodxonligini chuqur va mazmunli shaklda oshirishning samarali vositasidir.

PMI (Plus, Minus, Interesting) metodi. Bu usul biron bir g‘oya yoki qahramon tanlovini uch tomonlama: ijobiy jihatlar (P), salbiy jihatlar (M) va qiziqarli nuqtalar (I) bo‘yicha tahlil qilishga asoslanadi. Adabiyotda qahramon xatti-harakatini, muallif pozitsiyasini yoki asar g‘oyasini kompleks baholashda juda samarali. Bu usul PISA talablaridagi tanqidiy tahlil, pozitsiya bildirish va ma’no yaratuvchi jihatlaridan baholashga xizmat qiladi. Masalan, 6-sinf darsligida berilgan Xojiakbar Shayxovning “Birinchii sinov” hikoyasida Shahnozaning sinovini PMI asosida tahlil qilish mumkin. Metodning asosiy maqsadi ma’lum bir g‘oya, qaror, qahramon tanlovi yoki asar mazmuniga uch nuqtai nazar orqali yondashishdan iborat:

## 1-jadval

### PMI metodining mazmuni

Bo‘lim	Mazmuni
<b>Plus (P)</b>	Matndagi yoki g‘oyadagi ijobiy, ma’qul va qo‘llab-quvvatlanadigan tomonlar
<b>Minus (M)</b>	Salbiy, bahsli, kamchilikka ega yoki noto‘g‘ri deb hisoblangan jihatlar
<b>Interesting (I)</b>	Qiziqarli, hayratlanarli, o‘ylantiruvchi, ehtimol uyg‘un tomonlar

PMI metodining mazmuni va foydalanish tartibini quyida ko‘rib chiqamiz. Bu metod o‘quvchini murakkab vaziyatni bitta nuqtai nazardan emas, balki keng qamrovli tahlil asosida ko‘rishga, o‘z munosabatini asoslangan holda bayon qilishga, hamda mulohazali, muhokamachi fikr yuritishga undaydi. Odatda PMI jadvali shaklida tuziladi va har bir toifaga alohida misollar keltiriladi.

Dissertatsiyada, shuningdek, “Fikrlar xaritasi”, “Akvarium”, Debat, INSERT, RAFT kabi metodlarning PISA dasturiga muvofiq o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirishda muayyan afzalliklarga ega ekanligi asoslangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Adabiyot ta’limini xalqaro baholash dastur talablari asosida rivojlantirish modeli va uning samaradorligi**” deb nomlanadi va unda adabiyot ta’limni xalqaro baholash talablari asosida rivojlantirish modeli takomillashtirilgan, tadqiqotning pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmuni, tashkiliy jihatlari, natijalari tahlil qilingan.


Tadqiqotning ilmiy gipotezasi zamonaviy ta’limda shakllanib borayotgan global tendensiyalar, shu jumladan, funksional savodxonlik, kognitiv-estetik tahlil va shaxsning faol ma’no yaratuvchi subyekt sifatida tarbiyalanish zaruratidan kelib chiqadi. Adabiyot fani tabiatan interdissiplinar (fanlararo) xususiyatga ega bo‘lib, faqat badiiy matni tushunish emas, balki tarix, falsafa, psixologiya, etika, tilshunoslik, vizual va raqamli matnlar bilan o‘zaro bog‘liq bilimlar tizimini ham qamrab oladi.

Tadqiqot jarayonida mazkur gipotezaning nazariy asoslari mustahkamlangan, ilg‘or xorijiy va milliy tajribalar tahlil qilingan va ushbu asosda model yaratilgan (3.1-rasm). Mazkur modelning maqsadi shaxs rivojiga qaratilgan, xalqaro mezonlarga mos, zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan adabiyot ta’limi tizimini shakllantirishdir. Model tarkibida maqsad, mazmun, pedagogik jarayon va natija-baholash bloklari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda belgilanib, har bir blokda PISA mezonlariga mos komponentlar kiritildi. Ta’lim jarayonida esa CLIL, CBL, muammoli o‘qitish, keys-texnologiya, debat, INSERT, RAFT, PMI, Mind Map, “Akvarium” kabi zamonaviy metodlardan foydalanish, 5–,6-,7-sinf adabiyot darsliklaridagi aniq mavzularda qo‘llash orqali amaliy tajribalar o‘tkazildi.

